

ALGEBRANING “AKSLANTIRISHLAR” MAVZUSINI O’QITISHDAGI INNOVATSION G’OYALAR

*Ruhshona Jo'raboyeva Namangan davlat pedagogika instituti matematika
yo'nalishi 1-kurs talabasi*

*NamDPI Aniq fanlar kafedrası o'qituvchisi
Maxsudova Shohsanam Muzaffarxo'jayevna*

Annotatsiya. Ushbu maqola algebraning “Akslantirishlar” mavzusini o'qitishdagi innovatsion g'oyalarni tatqiq etishda yaqindan yordam beradi. Ushbu mavzu o'quvchilarga matematik modellashtirish va analitik geometriya kabi fanlarni o'zlashtirishda muhim asos yaratadi. Akslantirish bilan bog'liq ko'plab masalalar real hayotdagi geometrik, texnologik va ilmiy muammolarni yechishda qo'llaniladi. Masalan, kompyuter grafikasi, arxitektura, fizikada va boshqa sohalarda. Mavzuni innovatsion g'oyalar orqali o'tish o'quvchilarni darsga jalb qilishga va qiziqtirishga imkon yaratadi. Matematik ta'limda akslantirishlarni o'rganish o'quvchilarni nafaqat geometrik shakllarni tushunish, balki ularni turli transformatsiyalar orqali yangi holatlarni tassavur qilish uchun yordam beradi. Shu bilan birga akslantirish mavzusini o'rgatishda zamonaviy pedagogik metodlardan foydalanib darsni yanada intellektini oshirish mumkin.

Kalit so'zlar : Analitik yondashuv, koordinatalar tizimi, geometrik obyektlar, akslantirishlar, interektiv darslar, virtual simulyatsiyalar, gamifikatsiya yondashuvi, kreativ va tadqiqot, tadqiqot asosida o'qitish, aralash o'qitish

Asosiy qism

Algebra va geometriya sohalari matematik ta'limning asosiy yo'nalishlaridan hisoblanadi. Ushbu fanlar o'quvchilarga nafaqat matematik formulalar va tenglamalarni yechish, balki dunyoni tizimli tarzda tushunish va muammolarni analitik yondashuvlar bilan hal qilish ko'nikmalarini ham berilishi kerak. Algebra o'zgarishlar va o'zgarishlar jarayonini o'rnatish orqali murakkab tasavvurlarni oddiy formulalar yordamida ifodalashni o'rgatadi.

Bu yerda “akslantirish” mavzusi markaziy o'rin tutadi. Chunki u tizimidagi nuqtalarni, shakllarni yoki geometrik obyektlarni o'zlashtirish orqali murakkab masalalarni tushunishga yordam beradi. Akslantirish bu matematikada biror geometrik shaklni yoki nuqtani o'zgartirish jarayonini ifodalaydi. A to'plamdan olingan x element B to'plamdan olingan yagona y elementga f qonun-qoidaga ko'ra mos qo'yilishiga aytiladi. Akslantirishning quyidagi turlari bor:

1. Sur'ektiv akslantirish bu A va B to'plam berilib, B to'plamdagi har bir elementga A to'plamdan bitta yoki bir nechta element mos kelishi. Masalan $f:R \rightarrow R$ ga $f(x)=2x+1$ berilgan bo'lsa, bu sur'ektiv akslantirish.

Chunki $y=5$ bo'lganda $x=2$ ga akslanadi

2 . In'ektiv akslantirish bu A va B to'plam berilgan bo'lib, A to'plamdan olingan har bir element B to'plamdagi faqat bitta elementga mos keladi.

Misol : “Endi nima bo'ladi? Yana bir muammo!” bu in'ektiv akslantirish . Bu fikr shaxsning g'azabini yoki umidsizligini bildiradi.

3 . Biyektiv akslantirish bu A to'plamdan olingan har bir element B to'plamdagi bir xil va yagona elementga mos qo'yiladi.

Ham in'ektiv ham sur'ektiv akslantirish biyektiv akslantirish bo'ladi

Masalan: $f(x)=2x+1$ funksiya biyektiv akslantirish bo'lib, har bir x uchun yagona $f(x)$ qiymati va har bir y uchun $y=f(x)$ qiymati mos keladi.

Akslantirishlar algebra va analitik geometriya fanlarida ko'p qo'llaniladi. Akslantirish mavzusini o'rgatish o'quvchilarga koordinatalar tizimida shakllar o'rganganda, fazodagi jismlar o'zgarganda qanday o'zgarishlar ro'y berishini anglash imkonini beradi. Biroq mavzu o'quvchilarda qiyinchiliklar keltirib chiqarishi mumkin.

Ushbu mavzu an'anaviy usullarda o'qitish ko'pincha o'quvchilarni qiziqishlarini yo'qotishga va ularda mavzuga nisbatan umumiy tushunmovchilikka olib keladi. Shuning uchun, zamonaviy ta'lim metodlarini qo'llash masalan, interaktiv darslar , gamifikatsiya, aralash o'qitish va tadqiqot asosidagi yondashuvlar kabi innovatsion g'oyalar, akslantirishlar mavzusini o'rganishda samarali bo'lishi mumkin. Bu usullar o'quvchilarni bilim olishlarida samarali hisoblanadi

Quyidagi innovatsion g'oyalar shular jumlasidandir

1. Vizual diagrammalar va to'plamlar bilan ishlash . To'plam diagrammasi bu har bir to'plamni o'z ichiga olgan grafik interfeysda elementlarni joylashtirib , uni B to'plamdagi tegishli elementga chizib beradi.

2. O'yinlar va gamifikatsiya . Bu metodga akslantirish krassvordlari kiradi. Krassvordli jumboqlar yaratish, unda har bir krossvord bo'sh joyiga A to'plamdan tanlash kerak.

3. Rol o'ynash va interaktiv ssenariy. O'quvchilarni turli rollarga qo'yish, masalan, bir kishi A to'plami, boshqasi B to'plami o'rnida bo'lishi kerak. Ular akslantirishni amalda qo'llash uchun bir-biriga element ulashishlari mumkin.

4. Mobil ilovalar va interaktiv resurslar. Interaktiv ilovalar: O'quvchilar uchun akslantirishni o'rganishga qaratilgan mobil ilovalar yaratish

Masalan , o'quvchilar turli raqamlar to'plamidan tanlab , B to'plamga bog'lashadi va maxsus ilovalar orqali tekshirishadi.

5. Qayta ishlash va tahlil qilish mashqlari: O'quvchilar A va B to'plam beriladi va u ularning orasidagi akslantirishning to'g'ri yoki noto'g'ri ekanligini tahlil qilish kerak.

6. O'quvchiga yaratish va o'rganish imkoniyatini yaratish:

O'quvchiga A va B to'plam berib , to'plamlar orasidagi bog'lanishlarni ko'rish kerak. Bu ularning fikrlashini mustahkamlaydi.

7. Akslantirishga oid mashqlarni tahlil qilish . Akslantirishni sinovdan o'tkazish: har bir mashqdan keyin natijalarni va amalga oshirilgan akslantirishni o'rganish jarayoni.

Akslantirishni o'rganish jarayoni matematikada juda muhim tushuncha bo'lib, nafaqat to'plamlar nazariyasini , balki funksiyalar , munosabatlar va informatika sohasidagi ko'plab muammolarni tushunishda ham muhim o'rin tutadi. O'quvchilar uchun akslantirishni o'rganish nafaqat nazariy jihatdan , balki amaliy mashqlar orqali ham amalga oshirilsa, tushunish jarayoni ancha samarali va interaktiv bo'ladi. Quyidagi akslantirishning interaktiv yondashuvlari, ularning Afzalliklari haqida manbalarda keltirilgan

Xulosa. Interaktiv g'oyalar yordamida dars o'tish o'quvchilarni nazariy bilim bilan cheklanib qolmay, amaliyotdagi tatbiqlari bilan ham tanishishlari maqsadga muvofiq. Matematikani o'rganishda akslantirish tushunchalari, algoritmlar va ularning ishlatilishi bo'yicha foydali ma'lumotlar mavjud. Amaliy mashqlar va simulyatsiyalar orqali akslantirishning o'zlashtirish, matematik fikrlash va muammolarni hal qilishga ko'nikmani oshiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. The Cambridge Handbook of Applied School Psychology , pp. 598 – 612
2. Muzaffarxo'jaevna, M. S. (2023). Differensial tenglamalar fanini o'qitishda pedagogning kasbiy kompetentsiyasini rivojlantirish muammosining nazariy tahlili. Journal of innovations in scientific and educational research, 6(12), 74-78.
3. Ibroximov, M. A. (2023). Professional ta'lim yo'nalishi talabalarining ijtimoiy kompetentlikni rivojlantirishda ta'lim va amaliyot integratsiyasi. Academic research in educational sciences, 4(TMA Conference), 175-179.
4. Muzaffarkhujayevna, M. S. (2021, December). issues of teaching mathematics in secondary schools. In Archive of Conferences (pp. 69-70).
5. Polvanov, R. R. (2023). Ikkinchi tartibli gronuoll chegaralanishli boshqaruvlar uchun tutish masalasi. Research and education, 2(12), 62-67.
6. Maxsudova, S. (2020). ON A Boundary problem for an equation of shifted type with different orders of degeneracy. Scientific Bulletin of Namangan State University, 2(1), 36-39.
7. Tolibjon o'g, S. G. A. (2022). Boshqaruvlar aralash chegaralanishli bo'lgan hol uchun yopiq sodda graflarda quvish-qochish masalasi.
8. Maxsudova, S., & Hamitov, A. Scientific Bulletin of Namangan State Universit y.
9. Mamatxonovich, X. F., Erkinjonovna, S. Z., Tolibjon og, G. S., & Kosimovich, U. S. (2024). Applications of mathematical models in the teaching of mathematics: perspectives for geography majors. Научный Фокус, 1(11), 449-452.

10. Xolmuradov, F. M. (2024). Differentsial tenglamalar fanini oqitishda kompetensiyaviy va adaptiv yondashuvlardan foydalanish metokasi. Научный Фокус, 1(11), 172-178.

11. Ibrohimov, M. (2024). raqamli ta'lim davrida innovatsion tarbiya texnologiyalarining talabalar tarbiyaviy faoliyatidagi o'rni. Физико-технологического образование, (1).

12. Axmedovich, I. M. (2024). Xorijiy tadqiqotlarda bo'lajak pedagoglarning kasbiy faoliyatini ijtimoiy kompetentlik asosida rivojlantirish zaruriyatlari. Science and innovation, 3(Special Issue 41), 446-449.

13. Turdaliyeva, N. A., & Eshnazarova, M. Y. (2024). ZAMONAVIY ELEKTRON TA'LIM: INTERAKTIV PLATFORMALAR VA MOSLASHUVCHAN YONDASHUVLAR. SUSTAINABILITY OF EDUCATION, SOCIO-ECONOMIC SCIENCE THEORY, 2(23), 36-38.

14. Axmedovich, I. M. (2024). XORIJIY TAJRIBALAR TAHLILI ASOSIDA TALABALAR IJTIMOIIY-KASBIY KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHDA HAMKORLIK MEXANIZMLARI. Science and innovation, 3(Special Issue 16), 86-88.